



UDK: 811.512.133.27:81.42

**Muhabbat KURBANOVA,**

*Filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: qurbonova2007@mail.ru*

**Durdona NIZOMOVA,**

*Tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti Toshkent, O'zbekiston*

*Toshkent Amaliy fanlar instituti dotsenti, f.f.d. T.Yandashova taqrizi asosida*

#### O'ZBEK AYOLLAR NUTQIY ETIKETIDA XUSHMUOMALALIK TAMOIYILINING IFODALANISHI

Аннотация

Mazkur maqolada o'zbek ayollari nutqiy etiketida xushmuomalalik tamoyilining sotsiopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ayollar nutqida qo'llaniladigan yumshatish vositalari, bilvositalik, hurmat ifodalari hamda kommunikativ vaziyatga moslashuv mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek ayollari nutqida muloyimlik strategiyalari ijtimoiy-madaniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy etiket, xushmuomalalik tamoyili, sotsiopragmatika, gender lingvistika, kommunikativ xulq, hurmat tamoyillari.

#### THE EXPRESSION OF THE POLITENESS PRINCIPLE IN UZBEK WOMEN'S SPEECH ETIQUETTE

Abstract

This article analyzes the sociopragmatic features of politeness strategies in the speech etiquette of Uzbek women. The means of softening, indirectness, expressions of respect, and mechanisms of adaptation to the communicative situation used in women's speech are scientifically examined. The results of the study show that politeness strategies in the speech of Uzbek women are formed in close connection with socio-cultural norms.

**Keywords:** speech etiquette, politeness principle, sociopragmatics, gender linguistics, communicative behavior, principles of respect.

#### ВЫРАЖЕНИЕ ПРИНЦИПА ВЕЖЛИВОСТИ В РЕЧЕВОМ ЭТИКЕТЕ УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН

Аннотация

В данной статье анализируются социопрагматические особенности стратегий вежливости в речевом этикете узбекских женщин. Научно исследованы средства смягчения, косвенности, выражения уважения и механизмы адаптации к коммуникативной ситуации, используемые в речи женщин. Результаты исследования показывают, что стратегии вежливости в речи узбекских женщин формируются в тесной связи с социокультурными нормами.

**Ключевые слова:** речевой этикет, принцип вежливости, социопрагматика, гендерная лингвистика, коммуникативное поведение, принципы уважения.

**Kirish.** Til jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Nutqiy etiket esa muloqotni tartibga soluvchi me'yorlar tizimi sifatida insonlar o'rtasidagi kommunikativ jarayonni muvozanatlashtiradi. Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy etiket masalalari, ayniqsa, sotsiopragmatika va gender lingvistika doirasida keng tadqiq etilmoqda. Gender lingvistika inson nutqining biologik jinsdan tashqari ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilanishini o'rganadi hamda erkak va ayol nutqi o'rtasidagi farqlarni kommunikativ strategiyalar orqali izohlaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, erkak va ayol nutqi nafaqat lingvistik birliklar tanlovi, balki nutqning pragmatik yo'nalishi, kommunikativ niyat va ijtimoiy rol bilan ham farqlanadi. Xususan, ayollar nutqida ko'proq muloyimlik, bilvositalik va emotsional-ekspressivlik ustun bo'lsa, erkaklar nutqida bevositalik, qisqalik va informativlik ko'proq namoyon bo'ladi. Bu farqlar jamiyatda shakllangan gender stereotiplari va ijtimoiy rollar bilan bevosita bog'liqdir. Pragmatik nuqtayi nazardan, muloyimlik strategiyalari suhbatdoshning "ijtimoiy yuzi"ni saqlashga qaratilgan bo'lib, ular kommunikativ konfliktlarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili** Brown va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan muloyimlik nazariyasiga ko'ra, har

bir kommunikativ aktda ishtirokchilar o'zaro hurmatni saqlashga intiladi va buning uchun turli lingvistik strategiyalardan foydalanadi. Ayniqsa, ayollar nutqida bu strategiyalar tizimli va faol qo'llanilishi bilan ajralib turadi [1]. Gender lingvistikasi va gender kommunikatsiyasi masalalari Robin Lakoff, Deborah Tannen, Tamara V. Bendas, Dale Spender, Jennifer Coates, Janet Holmes kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

O'zbek jamiyatida ayollar nutqi an'anaviy ravishda muloyimlik, hurmat va ehtiyotkorlik bilan tavsiflanadi. Bu holat milliy madaniyat, urf-odatlar va ijtimoiy me'yorlar bilan belgilanadi. Ayollardan kutiladigan kommunikativ xulq - bosiqlik, murosaga moyillik va suhbatdoshga ehtirom ko'rsatish - nutqiy etiketda o'z ifodasini topadi. Shu bois mazkur maqolada o'zbek ayollari nutqiy etiketida muloyimlik strategiyalarining qo'llanishi va ularning sotsiopragmatik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Olim Tamara V. Bendas o'zining "Gender psixologiyasi" kitobida erkak va ayol kommunikativ xulqidagi farqlar nafaqat biologik, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan ham belgilanishini ta'kidlaydi. Hozirgi kunda gender lingvistikasida genderning quyidagi jihatlari o'rganilmoqda: gender va intonatsiya; gender va urg'u; gender va geminatsiya; gender va leksik qatlam; gender va ma'no ko'chishi; gender va morfologik ko'rsatkichlar; gender va

sintaktik vositalar; gender va frazeologizmlar; gender va diskurs; gender va pragmatika; gender va olamning lisoniy manzarasi; gender va virtual muloqot; gender va paralingvistik vositalar [2].

Lakoffning ta'kidlashicha, ayollar nutqiy etiketi yuqori darajadagi hamkorlikka yo'naltirilganligi, suhbatdosh nutqiga moslashuvchanligi hamda uning fikr-mulohazalariga nisbatan diqqat-e'tibor bilan yondashishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchining fikricha, ayollar nutqida kommunikativ ustunlikni qo'lga kiritishdan ko'ra, muloqotdagi muvozanatni saqlash, o'zaro tushunishni ta'minlash va ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Lakoff ayollar nutqini tahlil qilargan ekan, unda muloyimlik strategiyalarining ustunligini, xususan, yumshatish (mitigatsiya), bilvositalik va emotsional-ekspressiv vositalarning faol qo'llanishini alohida qayd etadi[3]. Bunday lingvistik xususiyatlar ayollarning kommunikativ xulqida ijtimoiy maqbullikni saqlashga, suhbatdoshning "ijtimoiy yuzi"ni himoya qilishga va potensial kommunikativ konfliktlarning oldini olishga xizmat qiladi. Suhbat – ayollar uchun munosabatlarni yaqinlashtirish va rivojlantirish vositasi bo'lsa, erkaklar uchun jamiyatda o'z mustaqilligi va mavqeyini saqlash, o'z nutqi orqali odamlarni ma'lum ergashtira olish vositasidir[4]. Shuningdek, ayollar nutqida tasdiqlovchi va qo'llab-quvvatlovchi birliklar (masalan, "ha", "to'g'ri", "shunday")ning yuqori chastotada qo'llanishi ham muloqot jarayonida hamkorlik muhitini yaratishga qaratilganini ko'rsatadi. Lakoffning fikricha, bunday strategiyalar nafaqat individual nutqiy xususiyat, balki jamiyatda shakllangan gender stereotiplari va ijtimoiy rollarning tilga ko'chgan ko'rinishi hisoblanadi. Demak, ayollar nutqiy etiketi Lakoff konsepsiyasida kooperativlik, moslashuvchanlik va muloyimlik tamoyillari asosida shakllanuvchi murakkab pragmatik tizim sifatida talqin qilinadi. Bu esa ayollar nutqining nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy tabiatini ham ochib beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda o'zbek ayollari nutqiy etiketida qo'llaniladigan muloyimlik strategiyalari sotsiopragsmatik va lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ayollar nutqida uchraydigan murojaat birliklari, hurmat ifodalovchi vositalar, yumshatish strategiyalari va emotsional-ekspressiv birliklar kommunikativ vaziyat doirasida o'rganildi.

Tadqiqot materiali sifatida o'zbek ayollari nutqidan olingan dialoglar, badiiy asarlar, kundalik muloqot namunalar hamda folklor birliklari tanlab olindi. Nutqiy birliklar gender aspektida tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari yoritildi. Tadqiqot davomida muloyimlik strategiyalarining ijtimoiy mavqe, yosh, qarindoshlik munosabatlari va kommunikativ vaziyat bilan bog'liqligi ham aniqlashtirildi.

**Tahlil va natijalar.** Ayollar muloqot etiketi salomlashish va so'rashish jarayonining uzoq davom etishi, ayni fikrlarni takrorlash, hissiyotlarni ochiq va ravon ifodalash, boshqalarning gaplarini suhbatdoshiga yetkazish, tanishlarining gaplaridan suhbat davomida foydalanish, suhbat chog'ida ma'noli so'zlarning qo'llanishi, fikr-mulohazalarni mubolag'a qilish orqali ifodalash, muloqot paytida pauzalarning deyarli bo'lmasligi, gaplarning uzun bo'lishi, suhbatdoshning fikrini tez-tez bo'lishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tilshunos olim S.Mo'minov o'z tadqiqot ishida xalq orasidagi "Elakka chiqqan ayolning ellik og'iz gapi bor" iborasiga to'xtalib o'tib, ayollar qo'shnisining uyiga elak so'rab chiqib qolib ketishi – bu ayollarga xos ko'p gapirish xususiyati bilan emas, balki suhbatdoshidan nimadir so'rashdan avval uning ruhiyatini o'rganish maqsadi bilan bog'liq ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalarini bildiradi. Ayol suhbatdoshining kayfiyatini bilish uchun imkon qadar suhbatni

cho'zishga harakat qiladi. Qo'shnisining harbiy xizmatga ketgan o'g'lidan tortib, kichik qizining bo'yi yetib chiroyli qiz bo'lgani bilan suhbatni qizitib borishi ham alohida ahamiyatli hodisadir. Muddaoga birdan o'tmay hol-ahvol so'rab, suhbatdoshining ko'ngliga yo'l topgach: – "Esim qursin-a, elakka chiqqandim", – deya maqsadini soddagina bayon etadi. Suhbatdan ko'ngli iligan qo'shnisi esa bu buyum o'ziga juda zarur bo'lsa-da, uni berib yuboradi. Buning asl mohiyati ayol suhbat jarayonida suhbatdoshiga ruhiy ta'sir o'tkazib borishidir. Agar suhbatdoshining kayfiyatidan ayolning ko'ngli to'lmasa so'ramoqchi bo'lgan buyumini so'ramasdan ham chiqib ketishi mumkin[5]. Ayolning ayolligi so'z sehrini bilishida va har qanday tarang vaziyatni ijobiy tarafga o'zgartira oladigan nutqiy salohiyat yetukligining sohibasi ekanligidir. Ayollarning fe'l-atvorlarida ijobiy xislatlar bilan birgalikda salbiy xislatlarning mavjudligi va bu ularning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishining guvohi bo'lamiz. O'zbek ayollari muloqot etiketida erkalash ma'nosini ifodalovchi leksik birliklar mislsiz o'rin tutadi. Ayollar farzandlariga murojaat qilayotgan paytlarida "bolajonim", "boquvchim", "ertam egasi" deb murojaat qilishadi. Ushbu erkalashlarning zamirida ertangi kunga da'vat g'oyasi namoyon bo'ladi. Bunday murojaatlarni eshitib voyaga yetgan farzand ruhiyati ham mukammal bo'ladi. Ayollar nutqi insonni shaxs sifatida tarbiyalashi va uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazishi bilan ham lingvokulturologik sohaning o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb mavzularidandir. Ayollar nutq madaniyatini o'rganishda muallif ular nutqidagi alohida jihatlariga e'tibor qaratishi kerak deb hisoblaydi. Ayollar nutq madaniylikiga g'iybat, chaqimchilik, qarg'ish so'zlardan foydalanish kabilar putur yetkazadi[6].

Yumshatish (mitigatsiya) strategiyasi o'zbek ayollari nutqiy etiketining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur strategiya orqali fikrlar keskin va to'g'ridan-to'g'ri shaklda emas, balki muloyim va ehtiyotkor tarzda ifodalangani. Ayollar nutqida "iltimos, qarab qo'ysangiz...", "agar mumkin bo'lsa...", "balki shunday qilarmiz..." kabi birliklarning qo'llanishi kommunikativ bosimni kamaytirib, talab yoki buyruqni iltimos shakliga keltirishga xizmat qiladi. Natijada suhbatdoshning ijtimoiy "yuzi" saqlanadi va muloqot jarayonida keskinlik yuzaga kelishining oldi olinadi.

Bilvosita nutq strategiyasi ham ayollar nutqida keng tarqalgan bo'lib, unda to'g'ridan-to'g'ri buyruq yoki talab o'rniga yumshatilgan, yashirin shakldagi ifodalar qo'llanadi. Masalan, "derazani yopib qo'ysak yaxshi bo'lardi" yoki "choy ichib olasizmi?" kabi gaplar orqali suhbatdoshga bevosita buyruq bermasdan, uni muayyan harakatga undash amalga oshiriladi. Bunday strategiya muloqotni yanada muloyim va ijtimoiy jihatdan maqbul shaklga keltirib, kommunikativ uyg'unlikni ta'minlaydi.

Hurmat va ehtirom ifodalari o'zbek ayollari nutqiy etiketida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, "siz" shaklining faol qo'llanishi, shuningdek, "marhamat", "rahmat", "uzr" kabi birliklarning yuqori chastotada ishlatilishi suhbatdoshga nisbatan hurmat munosabatini ifodalaydi. Ushbu vositalar orqali ijtimoiy ierarxiya va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi masofa belgilab beriladi hamda nutqiy etiket me'yorlari mustahkamlanadi. Bundan tashqari, ayollar nutqida emotsional-ekspressiv vositalarning keng qo'llanishi kuzatiladi. "Rahmat sizga katta", "uzr, bezovta qildim", "iltimos, juda kerak edi" kabi ifodalar nafaqat axborot yetkazadi, balki nutqqa emotsional rang beradi. Bu vositalar orqali kommunikativ yaqinlik, samimiylik va ijobiy munosabat kuchaytiriladi. Natijada muloqot jarayoni yanada iliqlik va samarali tus oladi.

**Xulosa va takliflar.** O'zbek ayollari nutqiy etiketida muloyimlik strategiyalari muhim kommunikativ vosita sifatida

namoyon bo'ladi. Ayollar nutqida yumshatish, bilvositalik, hurmat ifodalari hamda emotsional-ekspressiv birliklarning faol qo'llanishi muloqot jarayonida ijtimoiy muvozanatni saqlash, suhbatdosh bilan uyg'unlikka erishish va kommunikativ keskinlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur strategiyalar nafaqat individual nutqiy xususiyat, balki jamiyatda shakllangan gender stereotiplari va ijtimoiy

rollarning lingvistik ifodasi sifatida ham talqin etiladi. O'zbek madaniyatida ayollardan kutiladigan muloyimlik, bosiqlik va hurmatga asoslangan xulq-atvor nutqiy etiketda o'zining yaqqol aksini topadi. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida ayollar nutqida ayrim transformatsion jarayonlar kuzatilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Brown C. Understanding Other Cultures. – New Jersey: Prentice-Hall, 1963. – P. 354 .
2. Бендас Т. Гендерная психология. – Москва: Прогресс, 2006. – С. 11
3. Lakoff R. Language and Woman's Place. New York: Harper & Row, 1975.
4. Tannen G. You just don't understand. – New York, Silk press, 2007. – В.78.
5. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. док...дисс.– Тошкент, 2000. – 235 б
6. Потопов. V. Многоуровневая стратегия в лингвистической гендерологии // Вопросы языкознания, 2002. – С. 110-130.
7. Atadjanova N. Muloqot jarayonida lisoniy mansublik tavsifi va turlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qo'qon, 2022. – 26 b.
8. Brown C. Understanding Other Cultures. – New Jersey: Prentice-Hall, 1963. – 354 p .
9. Бендас Т. Гендерная психология. – Москва: Прогресс, 2006. – 231 с.
10. Формановская Н. Речевой этикет и культура общения. – Москва: Книга по требованию, 1988. – 172 с.
11. Калилина Г. Речевой этикет в разных структурированных языках. Дис. док... филол. наук. – Москва. 2021. – 214 с.